



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST/8-SON,
I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi	
Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Iloxomovich	



TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH

Mansurov Xamrokul Ilxomovich

Toshkent davlat transport universiteti bosh mutaxassisi

E-mail: yodik1818@gmail.com

ORCID: 0009-0003-8971-210X

Annotatsiya. 2020–2025-yillarda metropoliten sanoatida mahalliyashtirish jarayonining dinamikasi empirik jihatdan tahlil qilinib, olingan natijalar Xitoy, Hindiston, Rossiya va Turkiya tajribasi bilan qiyosiy baholandi. Tahlil natijalariga ko'ra, tadqiq etilgan davrda yo'lovchi tashish hajmi 7,4 barobarga (yillik o'rtacha 49,2 %), liniyalar uzunligi esa 42,0 % ga oshgan bo'lsa-da, mahalliyashtirish darajasi atigi 81,8 % ga (yillik o'rtacha 12,7 %) ko'tarilgan. Mahalliyashtirishning yo'lovchi oqimi o'sishiga nisbatan elastiklik koeffitsiyenti 0,13 ni tashkil etdi. Ishlab chiqarish faoliyatining tarkibiy tahlili yillik ishlab chiqarish hajmining qiymat jihatidan 14,4 % i bevosita import o'rnini bosishga, 65,9 % i ichki ehtiyojlarni qondirishga, 14,2 % i esa detallarni qayta tiklashga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, umumiy ishlab chiqarish hajmining 81,3 % i uchta tarkibiy bo'linmada jamlangani aniqlandi.

Kalit so'zlar: mahalliyashtirish, metropoliten sanoati, import o'rnini bosish, harakat tarkibi, tarkibiy tahlil, xalqaro qiyosiy baholash, mahalliy tarkib talablari, texnologik qaramlik.

Аннотация. Проведён эмпирический анализ динамики процессов локализации в промышленности метрополитена за 2020–2025 годы, а полученные результаты сопоставлены с опытом Китая, Индии, России и Турции. Результаты анализа показали, что за исследуемый период объём пассажирских перевозок увеличился в 7,4 раза (в среднем на 49,2 % в год), протяжённость линий — на 42,0 %, тогда как уровень локализации вырос лишь на 81,8 % (в среднем на 12,7 % в год). Эластичность локализации по отношению к росту пассажиропотока составила 0,13. Структурный анализ производственной деятельности показал, что в стоимостном выражении лишь 14,4 % годового объёма производства приходится непосредственно на импортозамещение, 65,9 % — на производство для внутренних нужд, а 14,2 % — на восстановление деталей. При этом 81,3 % общего объёма производства сосредоточено в трёх структурных подразделениях.

Ключевые слова: локализация, промышленность метрополитена, импортозамещение, подвижной состав, структурный анализ, международное сравнительное исследование, требования к местному содержанию, технологическая зависимость.

Abstract. An empirical analysis of localization dynamics in the metro industry during 2020–2025 was conducted, and the findings were comparatively evaluated against the experience of China, India, Russia, and Türkiye. The results indicate that passenger traffic increased by **7.4 times** (an average annual growth of **49.2%**) and route length expanded by **42.0%**, whereas the localization level increased by only **81.8%** (an average annual growth of **12.7%**). The elasticity of localization with respect to passenger traffic growth was estimated at **0.13**. A structural analysis of production activities revealed that, in value terms, only **14.4%** of annual output was directly related to import substitution, **65.9%** was intended for domestic operational needs, and **14.2%** was associated with component restoration. Furthermore, **81.3%** of total production output was concentrated within three structural units.

Keywords: localization, metro industry, import substitution, rolling stock, structural analysis, international comparative assessment, local content requirements, technological dependence.



KIRISH

Yirik shaharlarda metropoliten tarmog'ining jadal kengayishi transport infratuzilmasining sanoat bazasiga bo'lgan talabni bir necha barobar oshiradi. Yangi liniyalar, bekatlar va harakat tarkibi soni o'sgan sari ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar hamda texnik xizmat ko'rsatish resurslariga bo'lgan ehtiyoj ham mutanosib ravishda ko'payadi. Ushbu ehtiyojning qanday qoplanishi — import hisobidanmi yoki mahalliy ishlab chiqarish hisobidanmi — tarmoqning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini va texnologik mustaqilligini belgilaydi.

Metropoliten sanoati mahalliyashtirish siyosati uchun o'ziga xos maydon hisoblanadi. Bir tomondan, uning yagona yoki asosiy xaridori davlat operatori bo'lgani sababli talab prognoz qilinadigan va barqaror; bu mahalliy ishlab chiqaruvchi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchi tomondan, buyurtma hajmining nisbatan kichikligi masshtab samarasiga erishishni qiyinlashtiradi, xavfsizlik talablari esa sertifikatlash to'sig'ini keskin oshiradi. OECD ma'lumotlariga ko'ra, relsli transport sanoatida davlat xaridi bozorga kirishning eng muhim mexanizmi bo'lib qolmoqda [13]¹.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliyashtirish siyosatining nazariy asosi import o'rnini bosuvchi industrializatsiya konsepsiyasiga borib taqaladi [1]. Sharqiy Osiyo tajribasi tahlili himoya choralarning samarasi ularning muddatiga va eksportga o'tish bosqichining o'z vaqtida boshlanishiga bog'liqligini ko'rsatdi [2]. Mahalliy tarkib himoyasi esa de-fakto import boji bilan subsidiyaning kombinatsiyasi ekanligi, ya'ni oraliq mahsulot narxini oshirish orqali yakuniy mahsulot raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi isbotlangan [3].

Zamonaviy empirik adabiyotda mahalliy tarkib talablarining² oqibatlari qarama-qarshi baholanadi. Bir qator ishlarda LCRning savdo hajmiga va milliy iqtisodiyot samaradorligiga salbiy ta'siri miqdoriy asoslangan [5; 8]. Hindiston misolida LCR qo'llangan loyihalarda tannarxning qariyb 6 foizga oshgani aniqlangan [10]. Boshqa tomondan, LCRning texnologiya transferi va bandlik bo'yicha ijobiy natijalari muayyan institutsional shartlar bajarilgandagina yuzaga kelishi ta'kidlanadi [6; 7].

Relsli transport sanoati bo'yicha ikkita ish bevosita ahamiyatga ega. Xitoyda yuqori tezlikdagi temir yo'l texnologiyasining olib kirilishi natijasida hosil bo'lgan bilim spillover effekti o'lchanib, texnologiyani qabul qilgan korxonalarga yaqin joylashgan firmalarda patent faolligi, mahsuldorlik va daromad sezilarli o'sgani ko'rsatilgan; o'zlashtirish uchun bir necha yillik lag zarurligi qayd etilgan [11]. Boshqa tadqiqotda aynan shu jarayonning majburiy texnologiya transferi va diskriminatsion davlat xaridi orqali amalga oshirilgani tanqidiy tahlil qilinadi [12]. Relsli transport qiymat zanjirida davlat ko'magining ko'lamini esa alohida hisobotda baholangan [13].

Milliy adabiyotda mahalliyashtirish masalasi bir qator tadqiqotchilarning ishlarida ko'rib chiqilgan [14–18]. Biroq bu tadqiqotlarda baholash ko'pincha yalpi natijaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanadi; mahalliyashtirishning ichki tarkibi — qiymat bo'yicha qanday faoliyat turlariga taqsimlangani va qiymat zanjirining qaysi bosqichida joylashgani — alohida tahlil predmetiga aylantirilmagan. Mazkur maqola aynan shu tarkibiy kesimni empirik o'lchashga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot dizayni — bitta obyekt doirasidagi tavsifiy-tahliliy holat o'rganish (descriptive case study) bo'lib, unga qiyosiy benchmarking bloki qo'shilgan. Tahlil davri 2020–2025-yillarni qamrab oladi. Qo'llanilgan usullar: dinamik qatorlar tahlili (zanjirli va bazis o'sish sur'atlari, yillik o'rtacha o'sish sur'ati); tarkibiy tahlil (qiymat bo'yicha ulushlarni hisoblash); reja-fakt tahlili; elastiklik koeffitsiyentini hisoblash; hamda xalqaro qiyosiy baholash.

Mahalliyashtirishning o'sishga nisbatan elastikligi quyidagicha aniqlanadi: $E = \Delta L / \Delta Q$, bu yerda ΔL — mahalliyashtirish darajasining bazis o'sish sur'ati, %; ΔQ — tegishli hajm ko'rsatkichining bazis o'sish sur'ati, %. Koeffitsiyentning birdan kichik qiymati mahalliyashtirishning talab o'sishidan orqada qolayotganini bildiradi. Yillik o'rtacha o'sish sur'ati (CAGR) geometrik o'rtacha asosida hisoblangan.

Axborot bazasi rasmiy statistik ko'rsatkichlar, korxonaning ishlab chiqarish hisobotlari va normativ hujjatlardan tashkil topgan.

1 OECD tasnifiga ko'ra relsli transport sanoati bozori xizmatlar (37%), harakat tarkibi (35%), infratuzilma (18%), harakatni boshqarish tizimlari (9%) va kompleks boshqaruv (1%) segmentlariga taqsimlanadi. Qarang: [13].

2 Mahalliy tarkib talablari (local content requirements, LCR) — davlat tomonidan ishlab chiqaruvchi yoki investorga mahsulot qiymatining belgilangan ulushini mahalliy manbalardan ta'minlash majburiyatini yuklovchi normativ chora. Ushbu choralarning bir qismi Jahon savdo tashkilotining Savdo bilan bog'liq investitsiya choralari to'g'risidagi bitimi (TRIMs, 1994) doirasida cheklanadi. Batafsil: [5].



TAHLIL VA NATIJALAR


Infratuzilma, talab va mahalliyashtirish dinamikasining nomutanosibligi

Tahlil qilingan davrda metropoliten tizimining barcha asosiy ko'rsatkichlari o'sdi, biroq o'sish sur'atlari keskin farqlanadi (1-jadval, 1-rasm).

1-jadval

Metropoliten tizimining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2020–2025-yillar)³

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024	2025	Bazis o'sish, %	CAGR, %
Liniyalar uzunligi, km	~50,0	~56,5	~61,0	67,2	~69,5	71,0	+42,0	7,3
Bekatlarda soni, dona	~37	~41	45	48	~50	50	+35,1	6,2
Harakat tarkibi, poyezd	~36	~43	~50	~57	~68	71	+97,2	14,5
Yo'lovchi tashish, mln nafar/yil	38,8	101,8	136,7	172,0	270,3	286,8	+639,2	49,2
Kunlik o'rtacha yo'lovchi, ming	106	279	374	472	740	786	+641,1	49,3
Mahalliyashtirish darajasi, %	~27,5	~32,5	~37,5	~41,5	~46,0	~50,0	+81,8	12,7



1-rasm. Yo'lovchi tashish hajmi, liniyalar uzunligi va mahalliyashtirish darajasining dinamikasi⁴

Hisob-kitoblar quyidagi nomutanosiblikni aniqladi. Yo'lovchi tashish hajmi 7,4 barobarga (yillik o'rtacha 49,2%) o'sgani holda mahalliyashtirish darajasi atigi 81,8 foizga (yillik o'rtacha 12,7%) ko'tarilgan. Mahalliyashtirishning yo'lovchi oqimi o'sishiga nisbatan elastikligi 0,13 ni tashkil etadi, ya'ni talabning har 10 foiz o'sishiga mahalliy tarkibning atigi 1,3 foiz o'sishi to'g'ri keladi. Liniyalar uzunligiga nisbatan elastiklik 1,95 bo'lib, birdan yuqori: bu qurilish bosqichida mahalliy materiallar va pudratchilar ishtiroki nisbatan faol bo'lganini, harakat tarkibi va ekspluatatsiya bosqichida esa importga tayanish saqlanib qolganini ko'rsatadi.

Ushbu natija muhim tizimli xulosaga olib keladi: mahalliyashtirish talabning o'sishiga ergashuvchi, ya'ni reaktiv xarakterga ega. Tarmoq kengaygan sari import ehtiyoji mutlaq ifodada kamaymaydi, balki o'sadi — mahalliy ulushning nisbiy ko'rsatkichi yaxshilangan holda ham.

Ishlab chiqarish faoliyatining tarkibiy tahlili

Mahalliyashtirish darajasining yalpi ko'rsatkichi uning ichki tarkibini ochib bermaydi. Shu sababli korxona bo'linmalari kesimidagi yillik ishlab chiqarish hisoboti faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilindi (2-jadval).

³ Manba: muallif hisob-kitobi. «~» belgisi bilan ko'rsatilgan qiymatlar oraliq baholarning o'rta kattaligi hisoblanadi (3-izohga qarang).

⁴ Manba: 1-jadval ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-jadval

Ehtiyot qismlar ishlab chiqarish hajmining faoliyat turlari va bo'linmalar kesimidagi tarkibi⁵

Ko'rsatkich	Reja, nom.	Fakt, nom.	Fakt, dona	Qiymat, mln so'm	Ulush, %
Faoliyat turlari bo'yicha					
Mahalliyashtirish (import o'rini bosish)	102	102	1 863	40,0	14,4
Ishlab chiqarish (ichki ehtiyoj uchun)	313	1 839	26 204	182,4	65,9
Tiklash (detallarni qayta tiklash)	141	895	10 911	39,2	14,2
Boshqa xizmatlar ehtiyoji uchun	36	69	4 572	15,3	5,5
Jami	592	2 905	43 550	276,9	100,0
Bo'linmalar kesimida (qiymat bo'yicha)					
Vagonlarni ta'mirlash va ehtiyot qismlar ishlab chiqarish deposi				86,0	31,1
«Chilonzor» elektrodeposi				85,2	30,8
«O'zbekiston» elektrodeposi				53,9	19,5
«Elektromexanika» xizmati				20,5	7,4
«Signallashtirish va aloqa» xizmati				13,3	4,8
Boshqa xizmatlar (yo'l, elektr ta'minoti, tonnel, axborot xavfsizligi)				18,0	6,4

Tarkibiy tahlil uchta muhim natijani berdi. Birinchidan, yillik hajmning qiymat bo'yicha atigi 14,4 foizi bevosita import o'rini bosishga to'g'ri keladi; asosiy ulush (65,9%) ichki ehtiyoj uchun ishlab chiqarishga, yana 14,2 foizi esa detallarni qayta tiklashga tegishli. Qayta tiklash import xaridini vaqtincha kechiktiradi, ammo texnologik o'zlashtirishni ta'minlamaydi. Demak, mahalliyashtirish darajasining yalpi ko'rsatkichi jarayonning haqiqiy ko'lamini sezilarli darajada yuqori ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish hajmi kuchli jamlangan: uchta bo'linma umumiy qiymatning 81,3 foizini beradi, qolgan olti bo'linmaga atigi 18,7 foiz to'g'ri keladi. Bu ishlab chiqarish bazasining tor va kooperatsion zanjirning qisqa ekanligidan dalolat beradi.

Uchinchidan, reja-fakt tahlili rejalashtirish tizimidagi nomutanosiblikni ochib berdi. Umumiy nomenklatura bo'yicha reja 4,9 barobar ortig'i bilan (592 nom o'rniga 2 905 nom), miqdor bo'yicha esa 1,9 barobar ortig'i bilan bajarilgan. Shu bilan birga, aynan «mahalliyashtirish» yo'nalishi bo'yicha nomenklatura rejasi roppa-rosa 100 foizga bajarilgan (102 nom rejaga 102 nom fakt). Bu holat ziddiyatli: boshqa yo'nalishlarda reja bir necha barobar oshirib bajarilar ekan, siyosat maqsadi bo'lgan yo'nalishda aniq reja doirasidan chiqilmagan. Buni ishlab chiqarish quvvatining cheklovi emas, balki mahalliyashtirish rejasining o'zi cheklovchi omilga aylangani sifatida talqin qilish mumkin.

Xalqaro qiyosiy baholash


3-jadval

Metropolitan va relsli transport sanoatida mahalliyashtirish modellarining qiyosiy tavsifi⁶

Mamlakat	Model	Mahalliy tarkib darajasi	Asosiy vositalar	Aniqlangan cheklov va tanqid
Xitoy (CRRC)	majburiy LCR va birgalikdagi korxonalar	75–95%	davlat xaridi monopoliyasi, majburiy texnologiya transferi, yirik subsidiyalari, milliy chempion strategiyasi	innovatsion samaradorlikning nisbatan pastligi; bozorni yopish orqali erishilgan ustunlik [12; 13]
Rossiya	cheklovlarga javob sifatidagi majburiy model	70–90%	import cheklovlari, davlat buyurtmasi, ichki kooperatsiyani majburiy kengaytirish	sifat va komponent bazasining texnologik darajasi bo'yicha muammolar saqlanib qolgan
Hindiston	bosqichma-bosqich LCR («Make in India»)	70–80%	davlat xaridida mahalliy tarkib normalari, birgalikdagi korxonalar, kadrlar tayyorlash	qisqa muddatli tannarx o'sishi empirik tasdiqlangan [10]
Turkiya	milliy platforma modeli	50–60%	milliy harakat tarkibi platformasini ishlab chiqish, mahalliy ta'minot zanjirini shakllantirish	yuqori texnologik uzellar bo'yicha importga qaramlik saqlanmoqda
O'zbekiston	dastur-loyihaviy model	45–55%	byudjet moliyalashtirishi, harakat tarkibini modernizatsiya qilish, ehtiyot qismlarni o'zlashtirish	mahalliyashtirish sayoz segmentlarda to'plangan; majburiy LCR normalari joriy etilmagan

⁵ Manba: muallif hisob-kitobi korxonaning yillik ishlab chiqarish hisoboti asosida. Izoh: «nom.» — nomenklatura, ya'ni mahsulot nomlari soni.

⁶ Manba: muallif tomonidan [7; 10; 12; 13] manbalari va ochiq sohaviy hisobotlar asosida tuzilgan.



2-rasm. Harakat tarkibi va butlovchi qismlar bo'yicha mahalliy tarkib darajasining qiyosiy ko'rsatkichlari⁷

Qiyosiy tahlil tafovutning 20–40 foiz punktni tashkil etishini ko'rsatdi. Biroq raqamli tafovutdan ko'ra sifat tafovuti muhimroq. Xitoy va Hindiston tajribasida yuqori mahalliy tarkib darajasi majburiy normativ talab, birgalikdagi korxonalar va texnologiya transferi majburiyatlarining uyg'unligi orqali qo'lga kiritilgan [11; 12]. Turkiya modeli esa milliy harakat tarkibi platformasini yaratish orqali ta'minot zanjirini shakllantirishga tayanadi. Tahlil qilinayotgan holatda ushbu vositalarning hech biri to'liq qo'llanilmagan: mahalliyashtirish majburiy norma emas, balki dastur ko'rsatkichi sifatida boshqariladi.

Tafovutni belgilovchi omillar

4-jadval

Mahalliyashtirishni cheklovchi omillar va ularning namoyon bo'lish shakllari⁸

Omil guruhi	Aniqlangan cheklov	Namoyon bo'lish shakli	Ta'sir kuchi
Texnologik	yuqori aniqlikdagi uskunalar va konstruktorlik salohiyatining yetishmasligi	tortish dvigatellari, boshqaruv va signalizatsiya tizimlari to'liq import qilinadi	yuqori
Bozor	buyurtma hajmining kichikligi, yagona xaridor sharoiti	masshtab samarasiga erisha olmaslik, birlik tannarxining yuqoriligi	yuqori
Moliyaviy	katta boshlang'ich investitsiya talabi, cheklangan tarif sharoitida daromadning yetishmasligi	loyihalarning byudjet mablag'lariga yuqori bog'liqligi	yuqori
Institutsional	majburiy mahalliy tarkib normalarining yo'qligi, sertifikatlash jarayonining murakkabligi	yangi mahsulotni ishlab chiqarishga joriy etish muddatining cho'zilishi	o'rta
Kadrlar	muhandis-texnolog va konstruktorlar tanqisligi	mustaqil ishlanmalar ulushining pastligi, D3–D4 darajaga chiqa olmaslik	o'rta
Rejalashtirish	reja ko'rsatkichlarining real ishlab chiqarish quvvatidan uzilganligi	umumiy reja 4,9 barobar oshirib bajarilgani holda mahalliyashtirish rejasi 100% da qolishi	o'rta

Olingan natijalar mahalliyashtirishning miqdoriy va sifat o'lchovlari o'rtasidagi tafovutni yaqqol ko'rsatadi. Mahalliyashtirish darajasining 27,5 dan 50,0 foizgacha o'sishi rasmiy hisobotlarda ijobiy natija sifatida qayd etiladi. Biroq tarkibiy tahlil ushbu o'sishning asosiy qismi qiymat zanjirining sayoz segmentlarida — ehtiyot qismlar, rezina-texnika buyumlari, metall detallar va qayta tiklash ishlarida — hosil bo'lganini ko'rsatadi. Bu

⁷ Manba: 3-jadval ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁸ Manba: muallif tomonidan tarkibiy tahlil natijalari va sohaviy hisobotlar asosida tuzilgan.



holat adabiyotda ta'kidlangan qoidaga mos keladi: mahalliy ulushning o'sishi texnologik salohiyatning o'sishi bilan avtomatik tarzda birga kelmaydi [2].

Xalqaro tajriba bilan qiyos vosita tanlovidagi tafovutni ko'rsatadi. Xitoy bo'yicha tadqiqotda spillover effektining yuzaga kelishi uchun texnologiyani qabul qiluvchi korxonalar atrofida yetarli zichlikdagi sanoat muhiti mavjudligi hal qiluvchi shart bo'lgani ko'rsatiladi [11]. Tahlil qilinayotgan holatda ishlab chiqarishning 81,3 foizi uchta bo'linmada jamlangani aynan shunday muhitning shakllanmaganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, xorijiy tajribani nusxalashda ehtiyotkorlik zarur: majburiy mahalliy tarkib normalarining tannarxni oshirish va eksportni qisqartirish riski empirik asoslangan [8; 10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, 2020–2025-yillarda metropoliten tizimining talab va infratuzilma ko'rsatkichlari mahalliyashtirish darajasidan sezilarli darajada tez o'sgan: mahalliyashtirishning yo'lovchi oqimiga nisbatan elastikligi 0,13 ni tashkil etadi. Bu mahalliyashtirishning reaktiv xarakterga ega ekanligini bildiradi.

Ikkinchidan, tarkibiy tahlil yillik ishlab chiqarish hajmining qiymat bo'yicha atigi 14,4 foizi bevosita import o'rnini bosishga tegishli ekanligini, hajmning 81,3 foizi esa uchta bo'linmada jamlanganini aniqladi. Uchinchidan, xalqaro qiyos mahalliy tarkib darajasidagi 20–40 foiz punktlilik tafovutni ko'rsatdi; tafovutning asosiy sababi majburiy normativ talablar, birgalikdagi korxonalar va texnologiya transferi majburiyatlaridan iborat vositalar majmuining qo'llanilmayotganidir.

To'rtinchidan, mahalliyashtirish qiymat zanjirining sayoz segmentlarida to'plangan bo'lib, tortish dvigatellari, boshqaruv va signalizatsiya tizimlari import hisobiga qoplanmoqda. Shu sababli keyingi bosqichda siyosat urg'usini mahalliy ulushning miqdoriy o'sishidan uning chuqurligini oshirishga ko'chirish maqsadga muvofiq. Keyingi tadqiqotlar yo'nalishi sifatida mahalliyashtirish loyihalarining xarajat-foyda tahlili va sanoat kooperatsiyasi zanjirining tarmoqlararo balans asosidagi baholanishi belgilanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Prebisch R. *The Economic Development of Latin America and Its Principal Problems*. – New York: United Nations Department of Economic Affairs, 1950.
2. Amsden A. H. *Asia's Next Giant: South Korea and Late Industrialization*. – New York: Oxford University Press, 1989.
3. Grossman G. M. The Theory of Domestic Content Protection and Content Preference // *The Quarterly Journal of Economics*. – 1981. – Vol. 96, No. 4. – P. 583–603. – DOI: 10.2307/1880742.
4. Veloso F. M. Understanding Local Content Decisions: Economic Analysis and an Application to the Automotive Industry // *Journal of Regional Science*. – 2006. – Vol. 46, No. 4. – P. 747–772. – DOI: 10.1111/j.1467-9787.2006.00476.x.
5. Hufbauer G. C., Schott J. J., Cimino C., Vieira M., Wada E. *Local Content Requirements: A Global Problem*. – Washington, DC: Peterson Institute for International Economics, 2013.
6. Kuntze J.-C., Moerenhout T. *Local Content Requirements and the Renewable Energy Industry: A Good Match?* – Geneva: International Centre for Trade and Sustainable Development, 2013.
7. Tordo S., Warner M., Manzano O. E., Anouti Y. *Local Content Policies in the Oil and Gas Sector*. – Washington, DC: World Bank, 2013. – DOI: 10.1596/978-0-8213-9931-6.
8. Stone S., Messent J., Flaig D. Emerging Policy Issues: Localisation Barriers to Trade // *OECD Trade Policy Papers*. – 2015. – No. 180. – Paris: OECD Publishing. – DOI: 10.1787/5js1m6v5qd5j-en.
9. Flaig D. Local Content Requirements versus Tariff Equivalents: How We Measure Matters // *The World Economy*. – 2017. – Vol. 40, No. 5. – P. 931–948. – DOI: 10.1111/twec.12426.
10. Probst B., Anatolitis V., Kontoleon A., Díaz Anadón L. The Short-Term Costs of Local Content Requirements in the Indian Solar Auctions // *Nature Energy*. – 2020. – Vol. 5, No. 11. – P. 842–850. – DOI: 10.1038/s41560-020-0677-7.
11. Lin Y., Qin Y., Xie Z. Does Foreign Technology Transfer Spur Domestic Innovation? Evidence from the High-Speed Rail Sector in China // *Journal of Comparative Economics*. – 2021. – Vol. 49, No. 1. – P. 212–229. – DOI: 10.1016/j.jce.2020.08.004.
12. Cory N. *Heading Off Track: The Impact of China's Mercantilist Policies on Global High-Speed Rail Innovation*. – Washington, DC: Information Technology and Innovation Foundation, 2021.
13. OECD. *Measuring Distortions in International Markets: The Rolling-Stock Value Chain* // *OECD Trade Policy Papers*. – 2023. – No. 267. – Paris: OECD Publishing. – DOI: 10.1787/fa0ad480-en.



14. Boboev I. X. *Mahalliyashtirish asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish strategiyasini shakllantirish*: iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2008.
15. Norkulov S. T. *Metropolitan transportida yo'lovchi tashish faoliyati: muammo va yechimlar*: monografiya. – Toshkent: Omadbek Print Number One, 2024.
16. Norkulov S. T. *Transport iqtisodiyoti uchun sanoat korxonalari va ularning iqtisodiy samaradorligi*: monografiya. – Toshkent: Omadbek Print Number One, 2024.
17. Egamberdiyev Sh. Transport tizimlarining iqtisodiy samaradorligi // *Лучшие интеллектуальные исследования*. – 2025. – Т. 4. – № 37.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>